OZIQ-OVQAT SANOATI KORXONALARIDA IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISH MEXANIZMLARI VA ULARDAN OQILONA FOYDALANISH YO‘LLARI

Jurayev Javohir Xamroqul o’gli

Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti mustaqil tadqiqotchisi
E-mail: javokhir.juraev.work@gmail.com

K E Y W O R D S

Oziq-ovqat sanoati, iqtisodiy samaradorlik, resurs tejamkorlik, Kobb-Duglas modeli, rentabellik, resurs unumdorligi, modernizatsiya, xarajatlarni optimallashtirish

A B S T R A C T

Ushbu tadqiqotda oziq-ovqat sanoati korxonalarida iqtisodiy samaradorlikni oshirish va resurslardan oqilona foydalanish mexanizmlari O‘zbekiston Respublikasi me’yoriy hujjatlari doirasida ilmiy va amaliy jihatdan tadqiq etilgan. Tadqiqot metodologiyasida qiyosiy va statistik tahlil hamda Kobb-Duglas tipidagi ekonometrik regressiya modelidan unumli foydalanildi. Tahlillar natijasida modernizatsiya tadbirlari resurs unumdorligi koeffitsientini 1.12 dan 1.38 ga yetkazgani hamda rentabellikni 11.2% dan 16.8% ga oshirgani tasdiqlandi. Ekonometrik model orqali resurs va energiya tejamkorligini 1% ga oshirish ishlab chiqarish hajmini 0.34% ga ko‘paytirishi R2 = 0.89 miqdoriy jihatdan asoslandi. Olingan natijalar asosida xomashyoni chuqur qayta ishlash, raqamli ERP/SCM hamda resurs tejamkor texnologiyalarni joriy etib, mahsulot tannarxini 10–15% ga pasaytirish bo‘yicha amaliy takliflar berildi.

Kirish: Oziq-ovqat sanoati mamlakat iqtisodiyotining strategik tarmog‘i bo‘lib, u nafaqat aholini sifatli hamda xavfsiz iste’mol mollari bilan ta’minlash, balki agrosanoat majmuasining qo‘shilgan qiymat zanjirini shakllantirishda hal qiluvchi o‘rin tutadi. Mamlakatimizda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash va sohani jadal rivojlantirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 9-sentabrdagi PQ-4821-son “Respublikada oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi hamda 2021-yil 31-maydagi PQ-5130-son “Oziq-ovqat sanoatini rivojlantirish va sohani boshqarishni takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”[1]gi qarorlari qabul qilingan. Ushbu normativ-huquqiy hujjatlar mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo‘llab-quvvatlash, investitsion muhitni yaxshilash va tarmoqda raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini oshirishga mustahkam huquqiy poydevor bo‘lib xizmat qilmoqda.

Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son Farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston — 2030” strategiyasida qishloq xo‘jaligi xomashyosini chuqur qayta ishlash darajasini oshirish hamda oziq-ovqat sanoatida resurs tejamkor va yashil texnologiyalarni keng joriy etish bo‘yicha ustuvor vazifalar belgilangan. biroq, amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarga qaramay, soha korxonalarida ishlab chiqarish jarayonlarida resurs va energiya sig‘imining yuqoriligi, mahsulot tannarxida xomashyo xarajatlarining ulushi katta ekanligi hamda modernizatsiya ko‘rsatkichlarining pastligi kabi tizimli muammolar saqlanib qolmoqda. Bu esa tarmoqda iqtisodiy samaradorlikni oshirishning zamonaviy mexanizmlarini ilmiy asoslangan holda tadqiq etish zaruratini ko‘rsatadi.

[1] Oziq-ovqat sanoatini rivojlantirish va sohani boshqarishni takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida

(cc) BY dtai.uz

Ushbu tadqiqotning maqsadi yuqorida keltirilgan davlat dasturlari va me'yoriy-huquqiy hujjatlar ijrosini ta'minlash sharoitida oziq-ovqat sanoati korxonalarining iqtisodiy samaradorligiga ta'sir etuvchi omillarni kompleks tahlil qilishdan iborat. Tadqiqot doirasida resurs va xarajatlarni optimallashtirish, ishlab chiqarish unumdorligini oshirish hamda sohaga zamonaviy boshqaruv mexanizmlarini joriy etish bo‘yicha amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili: Oziq-ovqat sanoati korxonalarining iqtisodiy samaradorligini oshirish va unga ta’sir etuvchi omillarni tadqiq etish nazariy hamda amaliy iqtisodiyotda markaziy o‘rin tutadi. Klassik va zamonaviy iqtisodiy nazariyalarda korxonalarning resurslardan foydalanish samaradorligi, raqobatbardoshlik strategiyalari va innovatsion rivojlanish mexanizmlari xorijiy hamda mahalliy olimlar tomonidan atroflicha o‘rganilgan.

Xorijiy tadqiqotchilardan A. Smit (1776) va J. A. Shumpeter (1934) o‘z ilmiy ishlarida iqtisodiy samaradorlikning asosiy omillari sifatida mehnat taqsimoti, resurslarni oqilona biriktirish hamda innovatsiyalarni ishlab chiqarishga joriy etishni ko‘rsatib o‘tishgan. Shumpeter innovatsion jarayonlar va yangi texnologik yechimlar korxonaning uzoq muddatli rentabelligi va bozordagi ustunligini belgilab berishini ta’kidlaydi.

Zamonaviy strategik menejment nazariyasida M. Porter (1985) va P. Druker (1985) yondashuvlari alohida ahamiyatga ega. Porter qiymat zanjiri (Value Chain) konsepsiyasi orqali oziq-ovqat va qayta ishlash sanoatida har bir bosqichdagi xarajatlarni optimallashtirish zarurligini asoslasa, Druker korxona samaradorligini boshqaruv sifatini oshirish va innovatsion tadbirkorlik muhitini yaratish bilan bog‘laydi.

Resurslarga taban yondashuv (Resource-Based View — RBV) vakili J. Barni (1991) ta’kidlashicha, korxonaning tashqi muhitdagi raqobatbardoshligi uning ichki resurslari, texnologik va intellektual salohiyatiga bog‘liq. Oziq-ovqat sanoati sharoitida bu nazariya xomashyoni chuqur qayta ishlash, resurs tejamkor uskunalardan foydalanish va mahsulot sifatini doimiy nazorat qilish mexanizmlari orqali o‘z aksini topadi.

Hamdo‘stlik mamlakatlari va mahalliy olimlardan A. Vahobov, Sh. Mustafakulov hamda B. Berdiyevlar o‘z ilmiy izlanishlarida mintaqaviy sanoat va agrosanoat majmualarida samaradorlikni baholash usullarini tadqiq etishgan. Sh. Mustafakulov (2017) korxonalarning investitsion jozibadorligi va resurs tejamkorligini iqtisodiy samaradorlikning integrallashgan ko‘rsatkichlari sifatida baholash modelini ilgari suradi.

Oziq-ovqat sanoatida ishlab chiqarish mexanizmlarini optimallashtirish va xarajatlar tarkibini tahlil qilish bo‘yicha Sh. Yuldashev (2020) va Q. Jumayev (2024) tadqiqotlarida muhim natijalar olingan. Ularning ishlarida qishloq xo‘jaligi xomashyosini qayta ishlovchi korxonalarda mavsumiylik omilini yumshatish hamda mahsulot tannarxida energiya va transport xarajatlari ulushini kamaytirish usullari ko‘rib chiqilgan.

Shuningdek, xalqaro tashkilotlar, jumladan Jahon banki (World Bank, 2024) va BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti (FAO, 2023) hisobotlarida rivojlanayotgan mamlakatlarda oziq-ovqat sanoatini modernizatsiya qilish, qiymat zanjirini raqamlashtirish hamda Green Economy (yashil iqtisodiyot) tamoyillarini joriy etish samaradorlikni oshirishning asosiy drayveri sifatida e’tirof etiladi.

Xulosa qilib aytganda, mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, oziq-ovqat sanoatida iqtisodiy samaradorlikni oshirish masalasi nazariy jihatdan keng o‘rganilgan bo‘lsa-da, hududiy xususiyatlar, xomashyo bazasi hamda zamonaviy raqamli va resurs tejamkor mexanizmlarni birgalikda tatbiq etish bo‘yicha kompleks amaliy tadqiqotlarni yanada chuqurlashtirish talab etiladi.

Tadqiqot metodologiyasi: Ushbu tadqiqotda oziq-ovqat sanoati korxonalarining iqtisodiy samaradorligini oshirish hamda resurslardan oqilona foydalanish mexanizmlarini baholash uchun kompleks metodologik yondashuv qo‘llanilgan. Tadqiqotning metodologik poydevorini iqtisodiy-statistika, ekonometrik modellashtirish hamda resurs tejamkorlik

(cc) BY

ko‘rsatkichlarini tizimli tahlil qilish usullari tashkil etadi.

Tadqiqot jarayonida oziq-ovqat sanoatining hududiy va tarmoli xususiyatlarini hisobga olgan holda, nazariy umumlashmalar va amaliy ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik o‘rganildi. Ishlab chiqarish unumdorligi, resurs tejamkorlik hamda korxonaning moliyaviy barqarorligini baholash uchun miqdoriy (quantitative) va sifat (qualitative) tahlil usullari birgalikda tatbiq etildi.

Tadqiqotda qo‘llanilgan birinchi asosiy usul qiyosiy tahlil (Comparative Analysis) bo‘lib, u orqali oziq-ovqat sanoati korxonalarining turli davrlardagi hamda hududlar kesimidagi ko‘rsatkichlari solishtirildi. Ushbu usul yordamida korxonalarda xomashyo va tayyor mahsulot ishlab chiqarish hajmlari, xarajatlar tarkibi hamda rentabellik darajasi o‘rtasidagi dinamik o‘zgarishlar aniklandi.

Qiyosiy tahlil doirasida oziq-ovqat sanoati korxonalarining resurslardan foydalanish samaradorligi bo‘yicha ichki va tashqi benchmark ko‘rsatkichlari qiyoslandi. Bu yondashuv soha korxonalarida mavjud moddiy-texnik bazaning eskirish darajasi hamda mahsulot tannarxiga ta'sir etuvchi tarkibiy omillarni aniqlash imkonini berdi.

Ikkinchi muhim yo‘nalish statistik tahlil va guruhlash usullarini o‘z ichiga oladi. Oziq-ovqat sanoati korxonalarining 2020–2025 yillardagi ko‘rsatkichlari bo‘yicha statistik ma'lumotlar to‘planib, unumdorlik, energiya sig‘imi hamda xarajatlar ko‘rsatkichlari bo‘yicha dinamik qatorlar shakllantirildi.

Statistik guruhlash usuli yordamida korxonalar resurs tejamkorlik darajasi, ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish koeffitsienti hamda mahsulotning raqobatbardoshligi bo‘yicha bir jinsli guruhlarga ajratildi. Bu esa tarmokdagi yetakchi va orqada qolayotgan korxonalar o‘rtasidagi tafovut sabablarini aniq baholash imkonini berdi.

Uchinchidan, tadqiqotda resurs tejamkorlik va samaradorlik ko‘rsatkichlari tizimi (Resource Efficiency Metrics) ishlab chiqildi va qo‘llanildi. Oziq-ovqat sanoatida resurslardan foydalanish samaradorligi bevosita mahsulot birligiga sarflangan xomashyo (E_m), energiya (E_e) va mehnat (E_l) sig‘imi orqali baholandi.

Resurs tejamkorlikning umumlashtiruvchi ko‘rsatkichi sifatida resurs unumdorligi koeffitsienti (K_{re}) quyidagi formula orqali hisoblab chiqildi:

$$\mathrm{K}_{re} = \frac{Y}{M + E + L}$$

Bu yerda:

Y - ishlab chiqarilgan oziq-ovqat mahsulotining umumiy hajmi (pul ko‘rinishida),
M - moddiy xarajatlar,
E - energetika xarajatlari,
L - mehnatga haq to‘lash xarajatlari.

Ushbu ko‘rsatkich resurslar sarfiga nisbatan yaratilgan qiymat hajmini ko‘rsatadi.

To‘rtinchidan, omillarning iqtisodiy samaradorlikka ta'sirini miqdoriy baholash uchun ekonometrik modellashtirish *(Econometric Modeling)* usulidan foydalanildi. Tadqiqotda oziq-ovqat sanoati korxonalarining umumiy mahsulot ishlab chiqarish hajmi (Y) hamda unga ta'sir etuvchi omillar o‘rtasidagi bog‘liqlikni ifodalovchi Kobb-Duglas tipidagi ko‘p omilli regressiya modeli qurildi:

$$Y = A \cdot K^{\alpha} \cdot L^{\beta} \cdot E^{\gamma} \cdot e^{u}$$

Bu yerda:

Y - mahsulot ishlab chiqarish hajmi;
K - asosiy kapital va moddiy resurslar hajmi;
L - mehnat resurslari sarfi;
E - energiya va resurs tejamkor texnologiyalar sarfi;
α, β, γ - mos ravishda resurslarning elastiklik koeffitsientlari;
A - texnologik va boshqaruv samaradorligini ifodalovchi parametr.


Ekonometrik model parametrlarini baholash Eng kichik kvadratlar usuli (*Ordinary Least Squares - OLS*) yordamida amalga oshirildi. Modellarning statistik ahamiyati va ishonchlilik darajasi R^2 (determinatssiya koeffitsienti), F-

(cc) BY dtai.uz

Fisher hamda *t*-Student kriteriyalari orqali tekshirildi.

Beshinchidan, ishlab chiqarish xarajatlarini optimallashtirish va resurslarni oqilona taqsimlash uchun svot (*SWOT*) va marjinal tahlil (*Marginal Analysis*) yondashuvlari birgalikda qo‘llanildi. Marjinal tahlil orqali oziq-ovqat korxonalarida zararsizlik nuqtasi (*Break-even point*) hamda mahsulot hajmini oshirishdagi chegaraviy xarajatlar aniqlandi.

Tadqiqot metodologiyasining mantiqiy ketma-ketligi va tadqiqot usullari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik quyidagi tizimli sxemada aks ettirilgan:




1-rasm. Tadqiqot metodologiyasining mantiqiy ketma-ketligi va tadqiqot usullarining o‘zaro bog‘liqligi

Xulosa qilib aytganda, taklif etilayotgan metodologik yondashuv oziq-ovqat sanoati korxonalarida iqtisodiy samaradorlikni oshirish omillarini nafaqat nazariy jihatdan asoslash, balki ekonometrik modellar hamda resurs tejamkorlik ko‘rsatkichlari orqali miqdoriy baholash imkonini beradi. Bu esa ishlab chiqiladigan tavsiyalarning ishonchliligi va amaliy ahamiyatini ta'minlaydi.

Tahlil va natijalar: Oziq-ovqat sanoati korxonalarida iqtisodiy samaradorlik va xarajatlar tuzilmasining o‘zaro bog‘liqligi marjinal tahlil hamda zararsizlik nuqtasi (Break-Even Point - BEP) modeli orqali o‘rganildi.

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi (*Q*), jami tushum (*TR*), doimiy xarajatlar (*FC*) hamda o‘zgaruvchan xarajatlar (*VC*) o‘rtasidagi mutanosiblik korxonaning moliyaviy barqarorligini belgilaydi:



2-rasm. Zararsizlik nuqtasini aniqlash va korxona faoliyati samaradorligini baholash grafigi

(cc) BY dtai.uz

Iqtisodiy ko‘rsatkichlar tahlili va amaliy natijalar:

Xarajatlar tarkibi va xomashyo omili:

- Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, oziq-ovqat sanoati korxonalari mahsulot tannarxining 60-70% qismini xomashyo va materiallar xarajatlari tashkil etadi. Moddiy xarajatlar ulushining yuqoriligi resurs tejamkor texnologiyalarni joriy etish orqali zararsizlik nuqtasini (*BEP*) chapga — ishlab chiqarish hajmining quyi darajasiga surish imkonini beradi.
- Resurs Unumdorligi Koeffitsienti (K_{re}) dinakmikasi:
- Tadqiqot doirasida hisoblangan resurs unumdorligi koeffitsienti korxonalarda resurs tejamkor uskunalarni o‘rnatish natijasida o‘rtacha 1.12 dan 1.38 ga ko‘tarilishi aniqlandi. Bu esa har bir sarflangan 1 so‘m resurs xarajatiga to‘g‘ri keladigan mahsulot hajmining 23.2% ga oshganligini ko‘rsatadi.

1-jadval.

Korxonalarda resurs tejamkor mexanizmlarni joriy etishgacha va undan keyingi iqtisodiy ko‘rsatkichlar dinamikasi

Ko‘rsatkichlar nomi	Modernizatsiyagacha	Modernizatsiyadan so‘ng	O‘zgarish (%)
Ishlab chiqarish hajmi (mlrd so‘m)	124.5	158.2	+27.0%
Xomashyo sig‘imi (koeffitsient)	0.68	0.59	-13.2%
Energiya sig‘imi (kWh / birlik)	1.45	1.15	-20.6%
Rentabellik darajasi (%)	11.2%	16.8%	+5.6%

Ekonometrik model natijalari: Kobb-Duglas tipidagi regressiya modeli baholanganda, energiya va resurs tejamkor texnologiyalar sarfi (*E*) bo‘yicha elastiklik koeffitsienti $\gamma = 0.34$ ga teng bo‘ldi. Bu energiya tejamkorligini *1*% ga oshirish oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini *0.34%* ga ko‘paytirishini ko‘rsatadi ($R^2 = 0.89; F = 42.1$).

Xulosa va takliflar

Oziq-ovqat sanoati korxonalarida iqtisodiy samaradorlikni oshirish va resurslardan oqilona foydalanish bo‘yicha ishlab chiqilgan amaliy takliflar sohaning rivojlanish qonuniyatlari hamda olingan ekonometrik modellashtirish natijalariga tayangan holda ilmiy va amaliy jihatdan asoslanadi.

Birinchi navbatda, qishloq xo‘jaligi xomashyosini chuqur va chiqitisiz qayta ishlash klaster tizimini kengaytirish zaruriyati kelib chiqmoqda. Tahlillar ko‘rsatganidek, mahsulot tannarxining 60–70 foizini xomashyo va materiallar xarajatlari tashkil etganligi sababli, xomashyoni qayta ishlash chuqurligini oshirish hamda ikkilamchi resurslardan tayyor mahsulot ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish moddiy sarf-xarajatlar hajmini keskin pasaytirish imkonini beradi.

Ikkinchi asosiy yo‘nalish korxonalarda resurs hamda energiya tejamkor texnologiyalarni tatbiq etishni jadallashtirish bilan bog‘liqdir. Ekonometrik model natijalariga ko‘ra, energiya va resurs tejamkor texnologiyalar sarfi bo‘yicha elastiklik koeffitsienti $\gamma = 0.34$ ga teng bo‘lib, resurs tejamkorligining *1* foizga oshishi ishlab chiqarish hajmini *0.34* foizga ko‘paytirishi miqdoriy jihatdan isbotlandi. Shu sababli, ishlab chiqarish sexlariga quyosh panellari, energiyani rekuperatsiyalovchi qurilmalar hamda avtomatlashtirilgan resurs nazorati tizimlarini (*ASUE*) o‘rnatish iqtisodiy jihatdan o‘zini to‘liq oqlaydi.

Uchinchi tomondan, ishlab chiqarish jarayonlarida lokalizatsiya darajasini oshirish va import o‘rnini bosuvchi qadoqlash materiallarini mahalliy bozorlarda ishlab chiqarishni rag‘batlantirish talab etiladi. Tayyor oziq-ovqat mahsulotlari tannarxida tashqi qadoqlash materiallari ulushi yuqori bo‘lganligi sababli, mahalliy bionazoratli va qayta ishlanadigan

(cc) BY

ekologik qadoqlarni joriy etish logistika hamda moddiy xarajatlar yukini sezilarli darajada kamaytiradi.

To‘rtinchidan, korxonalarning logistika va ta'minot zanjirida raqamli *ERP* (Enterprise Resource Planning) va *SCM* (Supply Chain Management) tizimlarini keng tatbiq etish lozim. Ushbu raqamli yeçhimlar omborlardagi xomashyo va tayyor mahsulot zaxiralarini ortiqcha saqlash xarajatlarini optimallashtiradi hamda tez buziluvchi oziq-ovqat mahsulotlarining isrofgarchiligini minimal darajaga tushiradi.

Beshinchi asosiy chora korxonalarda resurs va xarajatlarni oqilona boshqarish uchun marjinal tahlil usullarini doimiy amaliyotga kiritishdan iborat. Mahsulot turlari kesimida chegara foyda va zararsizlik hajmini (BEP) dinamik hisoblab borish past rentabelli mahsulotlarni ishlab chiqarishdan chiqarish yoki ularning texnologik xarajatlar tarkibini o‘z vaqtida qayta ko‘rib chiqish imkonini yaratadi.

Oltinchidan, sohada "yashil iqtisodiyot" va sirkulyar iqtisodiyot tamoyillarini joriy etishni davlat tomonidan rag‘batlantirish mexanizmlarini takomillashtirish lozim. Resurs tejamkor texnologiyalarni xarid qilgan korxonalarga soliq va bojxona imtiyozlarini berish hamda "yashil kreditlar" ajratish ko‘lamini kengaytirish tarmoqning investitsion jozibadorligini va korxonalarning modernizatsiya tezligini oshiradi.

Yettinchi yo‘nalishda korxonalarning inson kapitali salohiyatini oshirish va mehnat unumdorligini rag‘batlantirish mexanizmlarini rivojlantirish zarurligi asoslanadi. Zamonaviy texnologik liniyalarni samarali boshqarish uchun kadrlar malakasini oshirish hamda xodimlarning ish haqini resurs tejamkorlik ko‘rsatkichlari bilan bog‘laydigan *KPI* (Key Performance Indicators) tizimini joriy etish lozim.

Sakkizinchi ilmiy-amaliy asos shundaki, modernizatsiya tadbirlari natijasida resurs unumdorligi koeffitsienti K_{re} *1.12* dan *1.38* ga ko‘tarilib, har bir sarflangan *1* so‘m resurs xarajatiga to‘g‘ri keladigan mahsulot hajmi *23.2* foizga oshishi va rentabellikning *11.2* foizdan *16.8* foizga yetishi tasdiqlandi. Bu ko‘rsatkichlar taklif etilayotgan mexanizmlarning kompleks tatbiq etilishi mahsulot tannarxini o‘rtacha *10–15* foizga pasaytirishini amalda ko‘rsatadi.

To‘qqizinchi va yakuniy asos sifatida, ushbu taklif va tavsiyalarning oziq-ovqat sanoati korxonalari amaliyotiga joriy etilishi resurs tejamkorligini ta'minlash va korxona rentabelligini oshirish barobarida, mamlakatimizda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash va “O‘zbekiston — 2030” strategiyasida belgilangan ustuvor maqsadlarga erishishda hal qiluvchi iqtisodiy hamda ijtimoiy samara beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 9-sentabrdagi PQ-4821-son “Respublikada oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 31-maydagi PQ-5130-son “Oziq-ovqat sanoatini rivojlantirish va sohani boshqarishni takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son Farmoni “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida.
4. Smith A. An Inquiry into the Nature and Causes of the Wealth of Nations. — London: W. Strahan and T. Cadell, 1776.
5. Schumpeter J. A. The Theory of Economic Development. — Cambridge, MA: Harvard University Press, 1934.
6. Porter M. E. Competitive Advantage: Creating and Sustaining Superior Performance. — New York: Free Press, 1985.
7. Drucker P. F. Innovation and Entrepreneurship. — New York: Harper & Row, 1985.
8. Barney J. Firm Resources and Sustained Competitive Advantage // Journal of Management. — 1991. — Vol. 17, No. 1. — P. 99-120.
9. Mustafakulov Sh. I. Investitsion muhit jozibadorligi. Monografiya. — T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2017. — 320 b.
10. Yuldashev Sh. Qishloq xo‘jaligi xomashyosini qayta ishlash korxonalarida

(cc) BY

samaradorlikni oshirish yo‘llari. — T.: "Fan va texnologiya", 2020. — 180 b.
11. Jumayev Q. Oziq-ovqat sanoatida xarajatlarni optimallashtirish va resurs tejamkorlik mexanizmlari // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. — 2024. — № 2. — B. 45-54.
12. World Bank. Food Security and Agricultural Modernization in Central Asia. — Washington, D.C.: World Bank Group, 2024.
13. FAO. The State of Food and Agriculture 2023: Revealing the true cost of food for transforming agrifood systems. — Rome: FAO, 2023.
14. Egamberdiyev E. Noravshan xulosa tizimlari qoidalar bazasini genetik algoritmlar bilan optimallashtirish //Современные проблемы интеллектуальных систем. – 2025. – Т. 1. – №. 2. – С. 332-338.

(cc) BY